



ALISHER NAVOIYNING “ILK DEVON”IGA TAVSIF

Husniya Jumaboyeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti husniyadavronovna@gmail.com (50)0551533

Annotatsiya: Sharq adabiyotida devon janrining o‘ziga xos o‘rni va Alisher Navoiyning bu janrga qo‘sishgan hissasi yoritildi. Shoirning “Ilk devon”i asarining tuzilishi, tarkibi, nusxalari haqida qisqacha to‘xtaldi. Nusxalar o‘rtasidagi farqlar mayjudligining sabablari o‘rganildi.

Tayanch so‘zlar: Devon, Alisher Navoiy, kotib, nusxa, qo‘lyozma, g‘azal, janr, harf

Аннотация: Освещено уникальное место жанра деван в восточной литературе и вклад Алишера Навои в этот жанр. Кратко обсуждались структура, содержание и копии произведения поэта «Илк Деван». Изучены причины специфических различий между экземплярами.

Ключевые слова: Деван, Навай, каллиграф, рукописная копия, газель, жанр, буква

Abstract: The unique place of the devan genre in Eastern literature and Alisher Navoi's contribution to this genre were highlighted. The structure, composition, and copies of the poet's "Ilk Devan" work were briefly discussed. The reasons for the differences between the copies were investigated.

Key words: Diwan, Navai, calligrapher, manuscript, ghazal, genre, letter

Sharq adabiyotini devon janrisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sababi devon she’riy to‘plam bo‘lib, shoirlarning barcha yozgan asarlarini bir yerga yig‘ish imkonini beradi. Sharq adabiyotida devon va devon tuzish an‘anasi X – XI asrlarda boshlangan. Bu janr shoirning qay darajada iste’dodli bo‘lib yetishganini ko‘rsatgani uchun ijodkorlar o‘z devonlarini shaklan va mazmunan mukammal bo‘lishiga e’tibor qaratganlar. O‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining o‘chmas izlarini qoldirgan Lutfiy, Atoiy, Gadoiy, Sakkokiy, Amiriyy, Uvaysiy, Nodira, Ogahiy, Fuzuliy, Navoiy, Bobur kabi sohibi devonlarni sanash mumkin.

An‘anaga ko‘ra, devonlarga dastlab debocha yoziladi, keyin she’rlar joylashtiriladi. Ba’zan debocha yozilmasligi ham mumkin. Bunday devonlarning hajmi ham kichikroq bo‘ladi. Debochadan so‘ng g‘azallar arab alifbosi tartibida joylashtiriladi. Bunda g‘azalning birinchi bayti oxiridagi harfga qaraladi. Ya’ni alif harfidan boshlab, yo harfigacha tartiblanadi. Bu qismlar “alif” radifli g‘azallar turkumi, “be” radifli g‘azallar deya sarlavhalanib boriladi. G‘azaldan boshqa barcha she’r janrlari ham alifbo asosida joylashtirish tartibiga rioya qilinadi.

Devonga tartib berishda she’rning mavzusiga ham qaraladi. Har bir harf bo‘limi boshida avval hamd, keyin na’t g‘azal keladi. Ulardan so‘ng nasihat g‘azallarga o‘tiladi. Alisher Navoiy devon tuzishda o‘ziga xos yo‘l tutgan. Bu haqida o‘zining birinchi devoni – “Badoyi” ul-bidoya”ning kirish qismida yozgan: “Necha nav’ ishkim, munda mar’iy bo‘lubturur, o‘zga davovinda ko‘rulmaydurur”[1]. Bu jumlalardan shoir boshqa devonlarda amalda bo‘limgan tartibni joriy etganini ma’lum qilganini bilishimiz mumkin. “Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o‘ttiz ikki harfdinki, xaloyiq iboratida voqi’durur va ulus kitobatida shoyi’, to‘rt harfg‘a taarruz qilmaydururlar. Chun so‘z arusi nazm haririning matbu’ kisvatin va mavzun xil’atin kiyib, jilva og‘oz qilsa, huqqayi yoquti dog‘i o‘ttiz ikkita gavhardin qachonkim to‘rtig‘a nuqson voqi’ bo‘lsa, muqarrardurkim, jamolig‘a andin kusur va kalomig‘a andin futur voqi’ bo‘lg‘usidurur.

Sho‘xeki, o‘kush husnu jamol o‘lg‘ay anga,
Bir husn yana husni maqol o‘lg‘ay anga.


La’li aro durlarida gar bo’lsa kusur,
So’z derda kerakkim, infiol o’lg‘ay anga.

Bu jihatdin ul to’rt harf gavharlarin dog‘i o’zga huruf javohiri silkiga tortib, g‘azaliyotni o’ttiz ikki harf tartibi bila murattab qilindi[2]. Bu so‘zlar orqali shoir fors va turk tillaridagi to’rtta “p”, “ch”, “g”, “j” harflarini qo‘sib, jami 32 harfga g‘azal bitganini va devoniga kiritgani haqida aytib o’tgan.

Devon nafaqat ijodorning o’zi tomonidan, balki boshqalar tomonidan ham tuzilishi mumkin. Misol uchun, Navoiyning “Ilk devon”i shoirning muhlislari tarafidan tuzilgandir. Devonga 391 g‘azal, 41 ruboiy, 1 mustazod, 1 muhammas - jami 434 ta she’r kiritilgan. Asarga shoirning yoshlik davridagi barcha she’rlari kiritilgan.

Bu qimmataho asarni Hamid Sulaymon aniqlab, u haqida qimmatli ma’lumotlar bergan: “Qo‘lyozma xati yirik klassik nasta’liq uslubida, Xurosonning oliv sifat ipak qog‘oziga qora siyohda yozilgan. Ko‘chirilgan har bir sahifa lojuvard, pistoqi, yashil, samoviy, novvotrang, qirmizi, za’faron ranglarga bo‘yalgan. Kitob hoshiyalar bosqqa, qalinqoq qog‘ozdan yasalib, barcha hoshiyalariga turli bo‘yoqlar bilan gul va daraxt barglaridan naqshlar ishlangan. Naqshlar orasiga turli-tuman hayvonlar va qushlar rasmi chizilgan.

Devonning boshlang‘ich to’rt beti oltin suvi va rang-barang bo‘yoqlarda g‘oyat nafis naqshlar bilan bezalgan. Ikki ustunda yozilgan barcha she’rlar yakkama-yakka zarhal jadvallar bilan o’ralgan. G‘azal va ruboiylar odatga ko‘ra alifbo tartibida joylashtirilgan. Barcha varaqlardagi poygirlarga ko‘ra qo‘lyozma to’liq saqlanib kelgan, yirtilgan, surkagan, dog‘langan varaqlar ham uchramaydi. Kitobning dastlabki muqovasi yo‘qolib, keyinchalik sariq kimxbob qoplangan karton muqovaga olinganligini hisobga olmaganda, nusxa nuqsonisz, juda yaxshi saqlangan desa bo‘ladi. Qo‘lyozmaning oxirgi betlaridagi ko‘rsatkichda avval nomlar arab grafikasida, qavs ichida shu so‘zning transliteratsiyasi, undan so‘ng varaqlar soni, uning yonida satrlar sirasi ko‘rsatilgan”[4].



Sinchiklab qaralganda, devonning sahifalari juda mayda tillarang ziraxollar bilan qoplanganini ko‘rishimiz mumkin. Tilla kukun ko‘chirayotgan xattot yozishni boshlashidan avval sachratilgan. Hoshiya atrofidagi naqshlar esa matn yozilib, quritilganidan so‘ng chizilgan.

Ushbu qo‘lyozmaning hozirgacha ikki nusxasi fanga ma’lum. Birinchi nusxa Leningrad Saltikov-Shchedrin nomidagi davlat xalq kutubxonasining Sharq bo‘limida dorn raqami ostida saqlanadi (inventar raqami 564). Varaqlar soni 143. O‘lchovi 23x34sm. Bu devon Sultonali ibn Muhammad Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan. Sultanali Mashhadiy Hirot xattotlik maktabining rahbari, nasta’liq xatining



ustasi, Alisher Navoiyning shaxsiy kotiblaridan biri bo‘lgan. U “qiblatul kuttob” (kotiblar peshvosi) va “sultonul xattotin” (xattotlar sultoni) unvonlariga sazovor bo‘lgan xattotdir[3].

Yana bir nusxasi Mahmud kotib tomonidan ko‘chirilgan. Hozirda Qozon davlat universitetining ilmiy kutubxonasida 1742-inventar raqami ostida saqlanadi.

Ushbu ikki qo‘lyozmalar bir-biriga taqqoslanganda va Hamid Sulaymon tadqiqotlari ko‘zdan kechirilganda ba‘zi ma’lumotlar aniqlashtirilgan. Ikkala qo‘lyozmaning tuzilish tartibi bir xil bo‘lib, g‘azal janri bilan boshlangan. Ammo Leningrad nusxasining birinchi g‘azali “Ashraqat min aksi...” matla‘li g‘azali emas, balki Qozon nusxasining beshinchchi g‘azali bo‘lgan: “Iloho, podshoho, kirdigoro...” matla‘si berilgan. G‘azallardan keyin ikkala nusxada ham ayni bir mustazod va bir muxammas keltirilib, oxiri ruboiylar bilan tugagan va kolofon (kitobning bosma ma’lumotlari va sanasi) berilgan. Nusxalar ichiga kiritilgan she’rlar o‘rtasida farqlar mavjud. Leningrad nusxasida 391 ta g‘azal va 41 ta ruboiylar joylashgan bo‘lsa, Qozon nusxasida 336 ta g‘azal va 43 ruboiy keltirilgan. Leningrad nusxasidagi g‘azallardan 41 tasi Qozon qo‘lyozmasida uchramaydi va aksincha, bu qo‘lyozmadan o‘rin olgan 50 g‘azal Leningrad nusxasida mavjud emas. Ruboiylar qismida ham shunday farqlar bor. Leningrad qo‘lyozmasidagi 41 ta ruboiyidan 3 tasi Qozon nusxasiga kiritilmay, uning o‘rniga boshqa 5 ruboiy qo‘silgan.

Qo‘lyozmani o‘rgangan olimlar, “Ilk devon”ning bu ikkala qo‘lyozma turli davrlarda (Leningrad nusxasi 1465-yilda, Qozon nusxasi esa 1568-yilda) ko‘chirilgan bo‘lib, o‘zaro ayrim farqlarga ega degan fikrga kelishgan. Bu farqlar qo‘lyozmalar ko‘chirish o‘rtasida o‘tgan uzoq muddat (100 yildan ortiq) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har ikki qo‘lyozmani ichki mazmun va tekstologik jihatdan chuqur tekshiribgina qat’iy ilmiy xulosalarga kelish lozim[5].

Ikkala devon nusxasiga aloqador bo‘lgan bir masala navoiyshunoslarning diqqatini jalb qilgan. Devonni ko‘chirgan Sultonali Mashhadiy o‘sha vaqtida 33 yoshda, Navoiy esa 24 yoshida bo‘lgan. Demak, devon ko‘chirilgan vaqtida kotib ham shoir ham ayni yigitlik chog‘ida bo‘lganlar. Lekin kolofondagi “fi ayyomish-shayb” (فِي الْيَمِ الشَّيْبِ) ya’ni “qarilik kunlarida” iborasi nima uchun yozilganligi ustida muzokara olib borilgan. Bu so‘zni kotib kolofonda o‘z nomining ortidan ko‘chirilish tarixiga 870/1465-yilni qo‘shib qo‘ygan. Bu sanalar yoshlik davriga ishora qiladi, qayd etilgan ibora esa qarilikni bildiradi. Olimlar dastlab bu iboraga “bahor oylarida” deb yanglish ma’no berib, masalani shu bilan yopib qo‘yishgan. Keyinchalik esa, kotib “fi ayyomish-shito” ya’ni “qish kunlarida” demoqchi bo‘lib, “fi ayyomish-shayb” deya yanglishib yozib yuborgan degan fikrga keldilar. Agar bu tahmin ham to‘g‘ri bo‘lmasa, sanani yozishda chalkashlik yuzaga keltingan bo‘lishi mumkin degan xulosalar ham yo‘q emas. Adabiyotda shunday savollarga javob olish uchun ko‘plab tekshirishlar, izlanishlar, tadqiqotlar olib borish zarur. Shular orqali to‘g‘ri va aniq xulosalarga kelish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 1-tom. Badoyi’ ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 20.
2. Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 tomlik. 1-tom. Badoyi’ ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – B. 21.
3. Ҳакимов М. Алишер Навоий асарларини кўчириган хаттотлар. Тошкент: Фан, 1991
4. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йил кўчирилган кўлёзманинг факсимили нашри / Нашрга таёровчи Ҳ.Сулаймон. – Ташкент: Фан, 1968.
5. Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 304
6. Алишер Навоий. Бадоев ул-бидоя. МАТ. 20 жилдлик. – Ташкент: Фан, 1987. Т.1. – 724 б.
7. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Tashkent: Akademnashr, 2020.